



MOLIYA HUQUQI TUSHUNCHASI, UNING HUQUQ TIZIMIDAGI VA DAVLATIMIZ BOSHQARUVIDA TUTGAN O'RNI

Yunusjonov Nodirbek Yunusjonovich

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti "Gumanitar fanlar"

kafedrasi o'qituvchisi

Andijon Qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari

yurisprudensiya yo'nalishi

talabasi

Usmonova Hojiniso Ilxomjon qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada moliya huquqining asosiy tushunchasi, uning huquq tizimidagi tutgan o'rni, davlat boshqaruv faoliyatida moliya huquqining asosiy o'rin tutganligi keltirib berilgan. Moliya huquqining davlat budjeti, soliqlar bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi ro'li va Moliya huquqining ommaviy huquq sohasi sifatida xususiyatlari, moliyaviy huquqiy munosabatlarda imperativ harakterga ega ekanligi tahlil qilingan. Moliya huquqining davlat boshqaruvi va iqtisodiy islohatlardagi muhim huquqiy vosita ekanligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Moliya huquqi tushunchasi, ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, davlat budjeti, soliqlar, davlat krediti, pul muomalasi, maqsadli jamg'armalar, moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash, moliyalashtirish, moliyaviy institutlar, budget resurslari, tadbirkorlik subyektlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, moliya huquqi normalari.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные понятия финансового права, его место в системе права, а также значимая роль финансового права в сфере государственного управления. Анализируется роль финансового права в регулировании общественных отношений, связанных с



государственным бюджетом и налогами. Раскрываются особенности финансового права как отрасли публичного права, а также императивный характер финансово-правовых отношений. Показано, что финансовое право является важным правовым инструментом в системе государственного управления и в процессе проведения экономических реформ.

Ключевые слова: Понятие финансового права, общественные отношения, обеспечение экономической стабильности, государственный бюджет, налоги, государственный кредит, денежное обращение, целевые фонды, формирование финансовых ресурсов, распределение, финансирование, финансовые институты, бюджетные ресурсы, субъекты предпринимательства, социально-экономическое развитие, нормы финансового права.

Abstract: This article examines the fundamental concept of financial law, its place within the legal system, and the significant role of financial law in public administration. The role of financial law in regulating social relations related to the state budget and taxes is analyzed. The characteristics of financial law as a branch of public law, as well as the imperative nature of financial legal relations, are highlighted. It is demonstrated that financial law serves as an important legal instrument in state governance and the implementation of economic reforms.

Keywords: Concept of financial law, social relations, ensuring economic stability, state budget, taxes, state credit, monetary circulation, targeted funds, formation of financial resources, distribution, financing, financial institutions, budgetary resources, business entities, socio-economic development, norms of financial law.

Kirish: Davlat faoliyatining muhim sohalaridan biri moliya huquqi hisoblanadi, u moliyaviy resurslarni shakillantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish, davlat va jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun zarur va bu jarayonda



vujudga keladigan . munosabatlarni tartibga soladi. Moliya huquqi davlatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim huquqiy vosita hisoblanadi.

Moliya huquqi – bu davlatning moliyaviy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalari majmuidir. Ushbu munosabatlar, asosan, davlat budjeti, soliqlar, davlat krediti, pul muomalasi va maqsadli jamg'armalar bilan bog'liq bo'ladi.¹

Moliya huquqi ommaviy huquq sohasiga mansub bo'lib, unda davlat hokimiyat vakolatlariga ega subyekt sifatida ishtirok etadi. Shu sababli moliya huquqiy munosabatlar ko'pincha imperativ xarakterga ega bo'ladi.

Moliya huquqi davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. U orqali davlat ijtimoiy sohalarni moliyalashtiradi, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshiradi hamda moliyaviy intizomni ta'minlaydi.

Davlat o'z oldida turgan vazifalarni bajarish jarayonida moliyaviy faoliyatni amalga oshiradi. Moliyaviy faoliyat deganda markalashgan va markazlashmagan pul jamg'armalarini maqsadga muvofiq va rejali tashkil etish, uni taqsimlash va foydalanish faoliyati.

Davlatning moliyaviy faoliyati bu davlat zimmasidagi funksiyalarni bajarishni ta'minlash yo'lida pul mablag'larini to'plash, taqsimlash soxasidagi tadbirlardan iborat.

Davlat moliyaviy faoliyati bir nechta asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

moliyaviy resurslarni shakllantirish (soliqlar, yig'imlar, davlat krediti);

moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash;

¹ <https://drive.google.com/file/d/15k1a2w2NRGetcyhwQNIFZ0PDGDIJv-1e/view?usp=drivesdk>



budjet mablag‘laridan foydalanish;

Moliya huquqi davlat moliyaviy tizimining huquqiy asosini tashkil etadi. Uning samarali ishlashi davlat budjetining barqarorligini, soliqlarni adolatli undirilishini va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanilishini ta’minlaydi. Shu bois moliya huquqi nafaqat huquqshunoslar, balki iqtisodchilar uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Davlatning barqaror faoliyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va aholi ehtiyojlarini qondirish moliyaviy resurslarning to‘g‘ri tashkil etilishiga bevosita bog‘liqdir. Mazkur jarayonni huquqiy jihatdan tartibga solishda moliya huquqi muhim o‘rin egallaydi. Moliya huquqi davlat moliyaviy siyosatini amalga oshirishning asosiy huquqiy vositasi hisoblanadi.

Moliya huquqi orqali davlat ijtimoiy himoya, sog‘liqni saqlash, ta’lim va infratuzilma sohalarini moliyalashtiradi. Shu bilan birga, moliya huquqi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solib, iqtisodiy muhit barqarorligini ta’minlaydi.

Moliya huquqi davlatnig iqtisodiy negizini taminlovchi “qon tomiri“ bo‘lib, davlat usiz o‘zining mudofaa, ijtimoiy himoya, va boshqaruv funksiyalarini bajara olmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham moliya sohasiga oid bir nechta normalar belgilab qo‘yilgan. Ushbu moddalar moliya huquqining asosini tashkil etadi yani davlat budjeti, soliq tizimi, moliyaviy tizimning mustaqilligi shular jumlasidandir.² Davlatimizning 2030-yilgacha mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ham moliya huquqining muhim ekanligi ko‘rsatib berilgan. Unda moliya huquqi alohida tarmoq sifatida nomlanmasada uning asosiy institutlari orqali amalga oshiriladigan vazifalari aniq belgilangan. Strategiyada davlat moliyaviy

² <https://lex.uz/docs/-6445145>



boshqaruvini zamonaviylashtirish, budjet jarayonini samaradorligini oshirish, moliyaviy intizomni mustaxkamlash, soliq yukini maqbullashtirish, soliq to'lovchilarning huquqlarini himoya qilish, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya sohalarini moliyalashtirish, davlat mablag'laridan maqsadli foydalanish, budjet, soliq, moliyaviy institutlarni takomillashtirish asoslari, moliyaviy huquqbuzarliklarni oldini olish muhim yo'nalish sifatida ko'rsatib berilgan.³

Xulosa: qilib aytganda, moliya huquqi davlat moliyaviy tizimining huquqiy poydevori hisoblanadi. Uning samarali ishlashidavlat budjetini barqarorligini, soliqlarni adolatli undirilishini, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Moliya huquqining prinsiplari va normalari moliyaviy intizomni mustahkamlashga, davlat mablag'laridan samarali foydalanishga hamda jamiyat manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "MOLIYA HUQUQI" O'quv qo'llanma S.Yusupov, A. Nurmuratov.
2. O'zbekiston -2030 strategiyasi
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

³ <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>